



SINXRON TARJIMADA STRATEGIYALAR

Nazrullayeva Gulnoza Karimbek qizi

TDSHU katta o'qituvchisi, PhD, Toshkent, O'zbekiston.

+99899 828 53 46; e-mail: nazrullayevag@gmail.com

Birlashgan Millatlar Tashkilotida sinxron
tarjimonlar 1961 yildan ish boshlashgan

V.G.Chernov

Annotasiya: Maqolaning asosiy maqsadi sinxron tarjimada strategiyalarini tahlil etish, sinxron tarjima og'zaki tarjima turlaridan eng murakkabi hisoblanadi. Tarjima jarayonida strategiyalarni zukkolik bilan tanlay bilish, ularning mexanizmini xatosiz ishlatish va sinxron tarjima strategiyalarini imkon qadar toliq va to'g'ri etkazib berish bizning oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimizdir. Sinxron tarjima turida strategiyalarni ishlatish va ularning ketma-ketlik mexanizmini yaratish va xatolarga yo'l qo'ymaslik va ularni chetlab o'tish orqali tarjima matnini imkon qadar to'liq va xatosiz tarjima qilish jarayonini to'laqonli yoritib berish mazkur ishning yangiligini belgilaydi.

Tayanch so'z va iboralar: sinxron, tarjima, strategiya, jihoz, konferensiya, imo-ishora.

Аннотация: Основной целью статьи является анализ стратегий в синхронном переводе, синхронный перевод является самым сложным из видов устного перевода. Наша главная цель — уметь разумно выбирать стратегии в процессе перевода, безошибочно использовать их механизм и максимально полно и точно предоставлять стратегии синхронного перевода. Новизна данной работы заключается в том, что использование стратегий в виде синхронного перевода и создание механизма их последовательности и полного охвата процесса перевода переводимого текста максимально полно и безошибочно путем недопущения ошибок. и обходя их.

Ключевые слова и фразы: синхронный, перевод, стратегия, оборудование, конференция, вывеска

Annotation: The main purpose of the article is to analyze the strategies in simultaneous translation, simultaneous translation is the most complex type of





interpretation. Our main goal is to be able to intelligently choose strategies in the translation process, accurately use their mechanism and provide simultaneous translation strategies as fully and accurately as possible. The novelty of this work lies in the fact that the use of strategies in the form of simultaneous translation and the creation of a mechanism for their sequence and full coverage of the translation process of the translated text is as complete and error-free as possible by avoiding errors. and bypass them.

Key words and phrases: simultaneous, translation, strategy, equipment, conference, signboard

Sinxron tarjima ogʻzaki tarjima turlaridan eng murakkabi hisoblanadi. Mazkur turdagi tarjimada maxsus jihoz orqali tarjima amalga oshiriladi. Bunda tarjimon ega boʻlgan mavzudagi bilimlar yordamida juda qisqa vaqt ichida manba tilini bilib olishi, tushinishi va etkazib berilishi talab qilinadi.

Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida oʻtiradi va quloqchin orqali soʻzlovchini tinglaydi, soʻng tinglash chogʻida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchinlar orqali eshitishadi. Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali ham yuz berishi mumkin (kar va soqovlar uchun). Soʻzlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar kabinada oʻtirishmaydi: ular soʻzlovchini koʻra oladigan va boshqa qatnashchilarga koʻrina oladigan konferensiya xonasida turishadi.

Konferensiya tarjimonlari, oʻz navbatida, ular tarjima qilayotgan delegatlar oʻrnida boʻlib qolishadi. Ular birinchi shaxs, yaʼni delegat nomidan gapiradi. «U ediki, oʻylashicha, bu yaxshi fikr ekan» kabi gaplarni tarjima qilmaydi. Konferensiya tarjimoni delegatning gapirish ohangiga tushgan holda tarjima qilishi kerak. Konferensiya tarjimoni nutqning qanday davomiylilikda boʻlishiga qaramasdan uni tarjima qila olishi kerak. Ular tarjima texnologiyasini oʻrganib olgan boʻlishi lozim. Amaliyotda, agar tarjimonlar 5 daqiqalik nutqni qoniqarli deb hisoblashsa, ular har qanday davomiylikdagi nutqni tarjima qila olishi zarur¹.

¹ Setton, R. A Pragmatic Theory of Simultaneous Interpretation / doctoral dissertation, Ann Arbor, Michigan, 1997. – P. 85.





Konferensiya tarjimonlari aniq vaqtda ishlaydilar. Hattoki, ketma-ket tarjima chog'ida ham ular so'zlovchi gapini tugatgandan so'ng tezda harakatga tushishlari va ularning tarjimasi tez va tinglovchiga tushunarli bo'lishi kerak.

Tarjimon sinxron tarjima jarayonida bir vaqtning o'zida bir qancha strategiyalardan foydalanadi. Odatda tarjimon vaziyatga qarab qaysi strategiyadan foydalanishini tanlaydi. Bu holatga albatta lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Kutish strategiyasi dunyo tarjima amaliyotida ma'noli fe'l gapning so'nggida keluvchi tillardan tarjimalarda tez-tez qo'llanadi. Misol uchun, nemis tilidan yoki golland tilidan sinab ko'rish va xatolar strategiyasidan foydalanish holatida bo'lganida, bu strategiya tarjimonning asosiy vazifasi - to'g'ri qaror qabul qilish uchun ko'proq va kengroq ravishda kontekstga ega bo'lish yoki tanishishdir. Umuman olganda, sinxron tarjimada mavjud bo'lgan barcha strategiyalar jamlab yig'ma holda ko'rib chiqilishi kerak. Ba'zida, tarjimonning qaysi bir strategiyani tanlashda umuman kutilmagan omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, uning psixologik va shaxsiy sifatlari sinxron tarjimonga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarjima kontekstida strategiyalar tarjima muammolarining yagona tuguniga o'ralib birgalikda funktsiya bajaradi. Tarjimon sinxron tarjima jarayonida bir vaqtning o'zida bir qancha strategiyalardan foydalanadi. Odatda tarjimon vaziyatga qarab qaysi strategiyadan foydalanishini tanlaydi. Bu holatga albatta lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Kutish strategiyasi dunyo tarjima amaliyotida ma'noli fe'l gapning so'nggida keluvchi tillardan tarjimalarda tez-tez qo'llanadi. Misol uchun, nemis tilidan yoki golland tilidan sinab ko'rish va xatolar strategiyasidan foydalanish holatida bo'lganida, bu strategiya tarjimonning asosiy vazifasi - to'g'ri qaror qabul qilish uchun ko'proq va kengroq ravishda kontekstga ega bo'lish yoki tanishishdir. Umuman olganda, sinxron tarjimada mavjud bo'lgan barcha strategiyalar jamlab yig'ma holda ko'rib chiqilishi kerak. Ba'zida, tarjimonning qaysi bir strategiyani tanlashda umuman kutilmagan omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, uning psixologik va shaxsiy sifatlari sinxron tarjimonga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarjima kontekstida strategiyalar tarjima muammolarining yagona tuguniga o'ralib birgalikda funktsiya bajaradi.

Kutish strategiyasida bildirilgan fikr, mulohaza ma'nosi mavjud kontekstdan umuman oydin bo'lmasa, unda sinxron tarjimon tekstning qolgan qismini, qaysiki ma'noni oydinlashtiruvchi qolgan qo'shimcha qism komponentlarni ham kutib, biroz





pauza qiladi. Agar ma'lumot qabul qilayotgan tinglovchini biroz vaqtga tarjimasiz qoldirib, noqulay vaziyatga solib qo'ymasa, sinxron tarjimon bir necha sekundga pauza qilib turishi mumkin. Bu strategiyadan foydalanishning eng munosib payti bu haqiqiy, original diskursiya paytidir². Axir, notiqning nutqida ikki gap orasida pauza mavjud bo'lsa, odatda o'sha bo'shliq ma'noni ifodalovchi gapni aytgandan so'ng, tarjimon aslyat matnining kengroq mazmuniga ega bo'lishi uchun pauza qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, qachonki ma'ruzachi navbatdagi ma'noni ifodalovchi gapni so'zlay boshlaganda sodir bo'ladi. Auditoriya psixologik jihatdan bu pauza ya'ni bo'shliqni to'liq anglamaydi. Chunki auditoriya diqqat e'tiborini avvalgi segment tarjimasi vaqtida qabul qilingan informasiyani qayta ishlash bilan band bo'ladi.

Bunday usul faqat pauza unchalik uzoq bo'lmaganda va hammasi bo'lib bir necha sekundlardan iborat bo'lgandagina ma'qullanishi ko'zda tutiladi va bu sekundlar davomida chiqishda yanada kengroq kontekstlar paydo bo'ladi. Aks holda, tarjimonga kamroq afzal ko'riladigan sinab ko'rish va xatolar strategiyasiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Ammo bu strategiyada xatolikka yo'l qo'yish ehtimolligi «kutish strategiyasini» foydalanishga qaraganda yuqoriroq. Aslida, umuman sinab ko'rish va xatolar strategiyasi tarjimini qutqarib qolish uchun eng so'nggi chora sifatida foydalaniladi. Bir tomondan pauza tarjimonning to'g'ri qaror qabul qilishi va unda kengroq kontekst bo'lishi uchun yetarli bo'lishi kerak. Boshqa tomondan esa ma'lumotni qabul qiluvchi qiynalmasligi uchun etarli darajada qisqa va lo'nda bo'lmog'i darkor.

Kutish strategiyasida bildirilgan fikr, mulohaza ma'nosi mavjud kontekstdan umuman oydin bo'lmasa, unda sinxron tarjimon tekstning qolgan qismini, qaysiki ma'noni oydinlashtiruvchi qolgan qo'shimcha qism komponentlarni ham kutib, biroz pauza qiladi. Agar ma'lumot qabul qilayotgan tinglovchini biroz vaqtga tarjimasiz qoldirib, noqulay vaziyatga solib qo'ymasa, sinxron tarjimon bir necha sekundga pauza qilib turishi mumkin. Bu strategiyadan foydalanishning eng munosib payti bu haqiqiy, original diskursiya paytidir. Axir, notiqning nutqida ikki gap orasida pauza mavjud bo'lsa, odatda o'sha bo'shliq ma'noni ifodalovchi gapni aytgandan so'ng, tarjimon aslyat matnining kengroq mazmuniga ega bo'lishi uchun pauza qilish imkoniyatiga

² Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. Уч. для институтов и факультетов ин.яз. – М., Воениздат, 1973. – С.120.





ega bo'ladi. Bu, qachonki ma'ruzachi navbatdagi ma'noni ifodalovchi gapni so'zlay boshlaganda sodir bo'ladi. Auditoriya psixologik jihatdan bu pauza ya'ni bo'shliqni to'liq anglamaydi. Chunki auditoriya diqqat e'tiborini avvalgi segment tarjimasi vaqtida qabul qilingan informatsiyani qayta ishlash bilan band bo'ladi.

Bunday usul faqat pauza unchalik uzoq bo'lmaganda va hammasi bo'lib bir necha sekundlardan iborat bo'lgandagina ma'qullanishi ko'zda tutiladi va bu sekundlar davomida chiqishda yanada kengroq kontekstlar paydo bo'ladi. Aks holda, tarjimonga kamroq afzal ko'riladigan sinab ko'rish va xatolar strategiyasiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Ammo bu strategiyada xatolikka yo'l qo'yish ehtimolligi «kutish strategiyasini» foydalanishga qaraganda yuqoriroq. Aslida, umuman sinab ko'rish va xatolar strategiyasi tarjimini qutqarib qolish uchun eng so'nggi chora sifatida foydalaniladi. Bir tomondan pauza tarjimonning to'g'ri qaror qabul qilishi va unda kengroq kontekst bo'lishi uchun etarli bo'lishi kerak. Boshqa tomondan esa ma'lumotni qabul qiluvchi qiynalmasligi uchun yetarli darajada qisqa va lo'nda bo'lmog'i darkor.

Sinxron tarjima tadqiqotchilarining aksariyati strategiya deganda asliyat tilidan tarjima tiliga tarjima qilishda xabarga ishlov berishdagi konferensiya tarjimoniga kerakli ko'nikma yoki ma'lum bir mahoratlarni tushunadilar. Sinxron tarjimada strategiya – tarjima vazifalarini amalga oshirish uslubi bo'lib, bu ma'ruzachining madaniy va shaxsiy xususiyatlarini, baza darajasini, til ustkategoriyalari va ostkategoriyalarini hisobga olgan holda xabar yuboruvchining kommunikativ maqsadini asliyat tilidan tarjima tiliga adekvat tarzda etkazib berishdan iborat.

Eng keng tarqalgan 10 ta sinxron tarjima tillari (ingliz, nemes, arab, rus, xitoy, fransuz, italyan, yapon, portugal, ispan) orasida 3 tasi shunday sintaktik strukturaga egaki, bunda fe'l gapning so'nggida keladi. Lekin arab tilida aksincha, fe'li konstruksiya gapning boshida keladi. Ayrim tadqiqochilar tarjimaning qiyinchiliklari til juftliklariga bog'liq emas deb hisoblaydilar. Umuman olganda til jamiyati ikki qarama-qarshi maktabga bo'lingan bo'lib, ularni shartli ravishda «ikki tarafmaliliklar» va «universalistlar» deb atash mumkin.

«Ikki tarafmaliliklar» sinxron tarjimada gap qurilishi asosiy rol o'ynaydi deb hisoblashadi. Ayniqsa, xitoy, yapon, koreys va nemis tillaridan fransuz tiliga tarjima qilishda deyarli barcha strategiyalar qo'llanilishi kuzatiladi. «Universalistlar» esa yuqoridagi fikrga qarama - qarshi holatda, tarjimada eng asosiysi mazmun deb





ta'kidlashadi, gapning qurilishi esa ikkinchi darajaga tushiriladi. Biz bu tadqiqot ishimizda har bir strategiyani alohida o'rganib, uning ba'zilarini koreys va o'zbek tillariga qo'llab tahlil qilib chiqdik.

Biz bu tadqiqot ishimizda har bir strategiyani alohida o'rganib, uning ba'zilarini koreys va o'zbek tillariga qo'llab tahlil qilib chiqdik.

Mazkur strategiya bevosita keng va tor kontekst tushunchalari bilan aloqador. Yozma tarjimaning og'zaki tarjimadan ustunliklaridan biri shundan iboratki, yozma tarjimada tarjimonda deyarli doim keng kontekst bor. Sinxron tarjimada esa bunday vaziyatlar ancha oz. Sinxron tarjimon keyingi sahifani varaqlab keyinida nimalar kelishini, u yoki bu tushuncha ortida nima turganligini ko'ra olmaydi. Bu erda avvalambor, tarjima kabinasida ma'ruzaning tayyor transkripti mavjud bo'lmagan xolatlar haqida so'z ketmoqda. Odatda bunday strategiya xabar yuboruvchi keng kontekstsiz tarjima qilish mushkul qator tushunchalarni sanab ko'rsatayotganida qo'llaniladi. Bu vaziyatda so'zma-so'z tarjima bebaho xizmat qilishi mumkin.

Sinxron tarjimon muayyan bir tushunchaning aniqroq tarjimasini berish uchun keng kontekstga ega bo'lish maqsadida sinab ko'rish yo'lidan yurganida, u xatolikka yo'l qo'yishi ham mumkin, to'g'ri variantni berishi ham mumkin.

Chiziqlilik strategiyasi. Sinxron tarjimada chiziqlilikni saqlash strategiyasini bir qator muallif va nazariyotchilar tomonidan asliyat tili va tarjima tili o'rtasida ko'proq muqobillikka erishishga yo'naltirilgan tayanch strategiya sifatida qaraladi.

Mulohazani yaratishda gap bo'laklari ishtirok etgan ma'noli parchalar ma'lum bir izchillikda xabarning boshlang'ich punkti (eski ma'lumot) dan fikrning harakati bilan mutanosiblikda uning ma'noli markazi (yangi ma'lumot) ga qadar joylashadi. Eski ma'lumotni ifodalovchi va minimal kommunikativ yukka ega ma'noli parcha tema hisoblanadi. Mulohazani amalga oshirish uchun ma'lumotni ifodalaydigan maksimal kommunikativ yukli parcha rema deb ataladi. Mazkur komponentlar birgalikda mulohazaning kommunikativ strukturasi tashkil qiladi.

Sinxron tarjimada tarjimon bir vaqtning o'zida bir necha strategiyalardan foydalanishi mumkin. Odatda qaror holatga bog'liq holda qabul qilinadi. Bu holatga albatta lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Kutish strategiyasi dunyo





tarjima amaliyotida ma'noli fe'l gapning so'nggida keluvchi tillardan tarjimalarda tez-tez qo'llanadi³.

Kutish strategiyasi shundan iboratki, bildirilgan fikr, mulohaza ma'nosi mavjud kontekstdan umuman oydin bo'lmasa, unda sinxron tarjimon tekstning qolgan qismini, qaysiki ma'noni oydinlashtiruvchi qolgan qo'shimcha qism komponentlarni ham kutib, biroz pauza qiladi. Agar ma'lumot qabul qilayotgan shaxsni biroz vaqtga tarjimasiz qoldirib, noqulay vaziyatga solib qo'ymasa, sinxron tarjimon bir necha sekundga pauza qilib turishi mumkin. Bu strategiyadan foydalanishning eng munosib payti bu haqiqiy, original diskursiya paytidir. Axir, notiqning nutqida ikki gap orasida pauza mavjud bo'lsa, odatda o'sha bo'shliq ma'noni ifodalovchi gapni aytgandan so'ng, tarjimon asliyat matnining kengroq mazmuniga ega bo'lishi uchun pauza qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ehtimoliy bashorat qilish strategiyasi asliyat tili chiqishida paydo bo'luvchi matnning lingvistik tarkibiy qismlarining tarjimon tomonidan ertaroq aniqlashidan iborat. Bir qator vaziyatlarda sinxron tarjimon diskursda paydo bo'lguniga qadar asliyat matnida qaysi fe'l bo'lishini aniqlab olishi mumkin. Ehtimoliy bashorat strategiyasi tarjima adabiyotlarida asosan fe'l so'nggida turuvchi konstruksiyalar yoki tayanch ot tushunchasi ma'noli guruhning so'nggida joylashgan vaziyatlar uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan strategiya sifatida ta'riflanadi.

Ilk marotaba «ehtimoliy bashorat» atamasini I.M.Feygenberg kiritadi. U ehtimoliy bashorat qilishga quyidagicha ta'rif beradi: «A vaziyatning yuzaga kelishi organizm tizimining reaksiyaga tayyorgarligi uchun signal bo'lib xizmat qiladi. (Qanchalik bashorat noaniq bo'lsa) o'tmishda A ning ketidan ko'pincha bir xilda yuruvchi voqea-hodisalarning doirasi qancha keng bo'lsa, keng fiziologik tizim doirasi shunchalik A signaliga javoban ko'proq safarbar bo'ladi. O'tmish tajribalarning ehtimoliy strukturasiga tayangan kelgusi vaziyatga mo'ljallangan harakatlarni bunday oldindan so'zlash ehtimoliy bashorat deb atalishi mumkin» .

G.V.Chernovning fikriga ko'ra, ehtimoliy bashorat mexanizmi asosiysi va eng muhimida sinxron tarjimani ta'minlovchi psixolingvistik mexanizm hisoblanadi. Fiziolog va psixologlarning bir qator ishlarida shu narsa ko'rsatilganki, ehtimoliy

³Hamidov X., Ismatullayeva N., Ergasheva S.. Sinxron tarjima (o'quv qo'llanma). –Toshkent: ToshDSHI, 2020. – B. 24.





bashorat qilish strategiyasi kishi psixik faoliyatning ko'p qirralari ostida, shuningdek, nutq faoliyati asosida yotadi. Sinxron tarjimon tomonidan asliyatdagi nutqning qabul qilinishi jarayonida uning miyasi muallifning kommunikativ niyatini yakunlashga turli variantlarni ishlab chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Setton, R. A Pragmatic Theory of Simultaneous Interpretation / doctoral dissertation, Ann Arbor, Michigan, 1997.
2. Илюхин В.М. Стратегии синхронного перевода (на материале англо-русской и русско-английской комбинаций перевода. – Москва, 2001.
3. Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. Уч. для институтов и факультетов ин.яз. – М., Воениздат, 1973.
4. Черняховская Л.А. Перестройка речевой структуры для передачи компонентов смыслового членения высказывания при переводе с русского языка на английский. Автореф. кандид. диссер. -М., 1971.
5. Чернов Г.В. Теория и практика синхронного перевода. -М.: Междунар. отношения, 1978.
6. N.Ismatullayeva. Sinxron tarjima masalalari fanidan ma'ruza matnlari. T.- 2013 yil.
7. Хамидов Х.Х., Хасанова Ш.А., Русча синхрон таржима терминларининг ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 2020.
8. Hamidov X., Ismatullayeva N., Ergasheva S.. Sinxron tarjima (o'quv qo'llanma). –Toshkent: ToshDSHI, 2020.

